

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

Suv xo‘jaligi sohasida ijro intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash yuzasidan mustahkam tizim yaratish, tartib o‘rnatish, temir intizomni joyiga qo‘yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o‘zgartirish – soha xodimlarining eng muhim hamda asosiy faoliyat mezonlaridir.

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “*texnologik zanjir*” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 95 ta hujjati orqali 1 132 ta topshiriq nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 56 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan va 12 ta topshiriqning muddatini uzaytirish yuzasidan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining tegishli Rayosat bayonlari bilan ijro muddatlarini uzaytirish ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 253 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 39 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan.

Joriy yilning avgust oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan jami 53 ta Prezident topshiriqlarining barchasi (100%) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

Joriy yilning avgust oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan jami 27 ta Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarining barchasi (100%) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

Shuningdek, 2025 yil yakuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 956 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 501 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 455 tasida hamijrochi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 257 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 171 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 86 tasida hamijrochi hisoblanadi.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlarida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi